



## Ислом Нури

«Salaf solih da`vat uslubining belgilari» silsilasi (4)

Muallif Abu Muhammad

Tarjimon Abu Ja'far al Buxoriy

Bismillahir rohmanir rohiym

Barcha olamlar robbisi bo`lgan Allohga hamdlar, payg`anbarimiz, uning oilasi, sahobalari va qiyomat kuniga qadar ularni sevgan kishilarga salavot va salomlar bo`lsin.

So`ng ...

Alloh yo`liga da`vat e`tish amallarning e`ng sharaflisi va ibodatlarning e`ng buyugidir. Chunki, u payg`ambarlarning xos vazifalari, Allohning do`stlari va sara bandalarining e`ng muhim ishlari bo`lgan. Alloh yo`liga da`vat e`tuvchilar - zimmalariga katta yuk va mas`uliyatni olgan hamda maqomi yuksak kishilardir. Alloh ta`olo dedi: «Alloh yo`liga da`vat e`tgan, solih amallarni qilgan va: «Men musulmonlardan biriman» degan kishidan ko`ra chiroyli so`zli kimsa bormi?».

Alloh yo`liga da`vat e`tuvchilar - Ummatning toza va sara kishilaridir. Chunki, bu vazifa ulardan barcha ishlarida odamlar uchun namuna va etakchi bo`lishni taqozo e`tadi. Da`vatchilar o`zlari yashayotgan jamiyat ichida namuna bo`lishlari, hayotlarida odamlarni da`vat e`tishayotgan dinning g`oya va asarlari ko`rinishi kerak. Shuning uchun ham, Alloh ta`olo Islom Ummatiga o`z ichidan Allohning diniga da`vat e`tadigan bir guruhni tayyorlashni farz qildi. Tayyorlash e`sa oson ish e`mas. Balki, u tinimsiz fidoiylik va imkoniyatlarga muhtojdir. Shuning uchun ham, bu vazifani ado e`tadigan kishilarni tanlash va tekshirib ko`rish kerak.



## Ислом Нури

Afsuski, hozirgi kunlarda da`vatga da`vatchilar kabi mansub bo`lgan, biroq, foyda berishdan ko`ra zarari ko`proq bo`lgan shaxslar paydo bo`ldilar. Buning sababi, ularni Allohga da`vat e`tuvchi haqiqiy da`vatchi qilib etishtirishdagi kamchiliklarga borib taqaladi.

Islom ushbu kunda payg`ambarlarning Alloh yo`liga da`vat e`tishgan da`vat uslublarini tushungan, Islomni ochiq va mukammal suratda yoyadigan, bu ishda tirishadigan, Islomni o`zlarining asosiy maqsadlari qilib oladigan, e`ng muhimi, qilgan da`vatlari bilan Allohga yaqinlikni nazarda tutadigan da`vatchilarga muhtojdir.

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam bizlarga odamlarga da`vatni qanday etkazishni o`rgatdilar. U zotning hayot tarzlarida bizlar uchun ko`p o`rnaklar bor. demak, bizlar, da`vatchi o`laroq, rasululloh sollallohu alayhi va sallamning yo`liga e`rgashishimiz, bog`lanishimiz va unda matonat bilan turishimiz kerak. Shubhasiz, rasululloh sollallohu alayhi va sallamning hayotida Allohning diniga da`vat e`tish hamda Yer yuzida Islomni barpo qiladigan uslubning ochiq bayonlari borki, u, odamlar keyingi davrlarda paydo qilgan va rasululloh sollallohu alayhi va sallamning yo`liga zid bid`at yo`llarga bizda e`htiyoj tug`dirmaydi.

Darhaqiqat, Olam bugungi kunda, birinchi bobolari kabi Er yuzini da`vat nurlari bilan yoritadigan Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning o`rinbosarlari - xolis da`vatchilarni kutmoqda. Alloh ta`olo bizning asrimizda Islom da`vatini dunyoning barcha o`lkalariga etishi va yoyilishiga nasib e`tdi. Dunyoning barcha davlatlarida islomiy uyg`onish shabbodalari e`smoqda. Da`vat jamiyatning barcha tarmoqlariga kirib bormoqda. Da`vat rasmiy maqomlardagi muallimlar kabi davlat xodimlarigagina cheklanishdan chiqdi, Balki, da`vatda e`rkak, xotin-qiz, mutaxassis, katta va kichiklarning barchasi ishtirok e`tmoqda. Bularning



## Ислом Нури

barchasi yaxshilik darakchisi hamda mu`minning yongan yuragini sovutuvchi hodisalardan biridir.

Biroq, islomiy da`vat e`rishgan ushbu taraqqiyot musibatlar, ichki va tashqi salbiy narsalardan xoliy bo`lmadi. Biz quyida ularning bir nechasini bayon qilmoqchimiz.

\* Rasululloh sollalohu alayhi va sallamning sunnatlari va da`vat uslublarini bilgan murabbiy va yo`llovchilarning ozligi hamda Islom diniga qiziqishning haddan ziyod ortishi. Bu tezroq tuzalishi kerak bo`lgan hastalikdir.

\* Da`vatchini davrning yangi va xilma-xil e`htiyojlariga mos darajada, xususan, o`rgatish va odatlantirishga tayyorlaydigan dasturlardagi kamchiliklar.

\* Tarbiya berish yoshining kattaligi. Chunki, da`vatchi shakllanish davrining ilk kunlaridanoq tarbiyalanishi kerak. Toki, o`rgangan narsalarni berish kechikmasin va da`vatchi o`z tajribalaridan foydalansin.

\* Islomiy da`vatga qarshi kuchlar. Bu kuchlar katta imkoniyatlarga e`ga va Allohning yo`lidan to`sishda katta tajribasi bo`lgan kuchlardir. Kofir millatlar bir-birlariga nisbatan qanchalar ixtilofda bo`lmasinlar, Islom dini va musulmonlarga qarshi kurashda doimo hamkordirlar.

\* Hayotning jozibasi, fitnalari, muammolari va ishlari da`vat va da`vatchilar oldida to`siq bo`lib qolmoqda. Da`vatchilar inson nafsi, inson nafsiga ta`sir e`tish, uning darichalari va uni tozalash yo`llarini bilishlari kerak.

\* Islom diniga qarshi bo`lgan fikriy oqimlarning paydo bo`lishi va ularning



## Ислом Нури

moddiy narsalar hamda ommaviy axborot vositalariga e`ga bo`lishlari va odamlarning ular bilan chalg`ishlari.

\* Islomiy tadqiqotlar. Tabiiyki, islomiy tadqiqotlarning ijobiy tomonlari bo`lsada, biroq, uning salbiy tomonlari ham bor. Ulardan biri ba`zi narsalarni Allohning Kitobi, sunnat, ijmo` va shariat maqsadlarini o`rganishda salaf tushunchalariga bog`lanmaslikdir. Nafs-havo, siyosiy, ijtimoiy va guruhbozlik bosqichlarining kirirb kelishi hamda juz`iy tahlillar ham biz aytgan to`siqlardandir. Bularning barchasi umuman jamiyatga, xususan e`sa da`vatchilarga salbiy ta`sir ko`rsatadi. Yoshlarni o`z tushunchalari va olgan bilimlaridan shubhalantirish, yetuk bo`lmagan hamda mantiqsiz bahs va haroratni vujudga keltirish, raddiyalar nafratlanishlar ushbu salbiy ta`sirlar jumlasidandir... Buning oqibatida yoshlarning g`oyaviy dushmanlari yetmagandek, guruhbozlik va taassub (o`jarlik) paydo bo`ldi.

Bu va bundan boshqa yuklar, da`vatni, shaxsiy va hissiyotlar maydonidan reja, dastur, qoidaga bog`lanish maydoniga olib chiqishimizda, biz da`vatchilarga, o`z og`irligini ko`rsatmoqda. Shuning uchun ham, biz ushbu risolani islomiy jamoatlarning barcha da`vatchilariga yo`llaymiz va ularni Ummatni yangitdan oyoqqa turishi va o`zining avvalgi holatiga qaytishi uchun harakat qilishga da`vat e`tamiz.

Biz ushbu risolani taqdim e`tar e`kanmiz, «qoida» so`zining istilohiy iste`molida butunlay to`g`ri fikr yuritdik deb aytmaymiz. Balki, uning ba`zisi qoida, ba`zisi e`sa asosdir. Nima bo`lsa ham, «qoida» so`zining iste`molini da`vatchilar uchun o`rtoq fikrni vujudga keltirish yo`lida umumiy va asos o`laroq keltirdik.

Biz Alloh ta`olodan bundan ko`ra yaxshiroq va kengroq tushuntirish



## Ислом Нури

berishi uchun boshqa risolalarni yozishga muvaffaq qilishini so`raymiz. Barcha olamlar robbisi bo`lgan Alloh ta`ologa hamdu sanolar bo`lsin.

### Da`vatchining qoidalari

**1 - qoida.** Alloh ta`oloning yo`liga da`vat e`tish dunyo va oxiratdagi najot yo`llaridan biridir. Payg`ambarimiz aytganlaridek: Allo siz sababli bir kishini hidoyat qilsa, u sizga (qimmatbaho) qizil yungli tuyalaringiz bo`lishidan ko`ra yaxshiroqdir. Da`vat qilish bilan, ijobat qilinishini kutilmay, savoblar yoziladi. Islomning haqiqiy g`alabasini ro`yobga cjiqarish da`vatchidan talab qilinmagan. U Allohning ishidir. Islomning g`alabasi Alloh hohlagan paytda sodir bo`ladi. Biroq, da`vatchidan Islom yo`lida o`z kuchini sarf e`tishi talab qilingan. Da`vatchining tayyorgarlik ko`rishi shart bo`lsa, Alloh g`alaba berishni o`z zimmasiga oladi. Da`vat jihodning bir ko`rinishi bo`lib, jihod bilan maqsad va natijada birlashadi.

**2 - qoida.** Ummat salafining «Ahlussunna val-jamoa» yo`nalishida shakllangan dasturini, bu dasturning mu`tadilligi, me`yordan oshish va tushishdan uzoq bo`lishini hamda umumiyliги (shumuliyliги) ni o`rnatish va mustahkamlash.

**3 - qoida.** Allohning Kitobi va rasululloh sollallohu alayhi va sallamning sunnatlarini o`z ichiga olgan shar`iy ilm, Allohning fazli bilan, toyilishdan saqlaydi. U – payg`ambarlar yo`lida yurgan kishilar uchun mayoqdir.

**4 - qoida.** Da`vatning sog`lom dasturi – Allohning Kitobi, Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning sunnatlari, bu Ummatning salafi, ularga qiyomat kuniga qadar yaxshilik bilan e`rgashgan kishilarning so`zlari va amallaridir.



## Ислом Нури

**5 - qoida.** Imom Molik rahimahullohning: «Bu ummatning oxiri avvali isloh bo`lgan narsa bilan isloh bo`ladi, U kunda din bo`lmagan narsa, bugun din bo`la olmaydi» deb aytgan so`zlariga binoan, odamlarni Rasululloh sollallohu alayhi va sallam, uning sahobalari va ularga yaxshilik bilan e`rgashgan salaf solih yashagan hayotga qaytarish.

**6 - qoida.** Alloh yo`liga da`vat e`tish uchun birlashgan jamoani «musulmonlar jamoasi» e`mas, balki, «musulmonlardan bo`lgan bir jamoa» deb tushunish to`g`ri tushunishdir.

**7 - qoida.** Do`stlik - fikr va shaxslar uchun e`mas, haqiqat uchundir. Chunki, haqiqat boqiy, shaxslar e`sa foniidir.

**8 - qoida.** Tavhid kalimasi yaxlitlik asosi va musulmonlarni birlashtirish o`rniga parchalagan bugungi kundagi guruhbozlikning salbiy ko`rinishlaridan uzoq bo`lish shiori ostida harakat qiladigan dastur bilan musulmonlar jamoatini tuzish hamda ularni haqiqat uzra va haqiqat yo`lida birlashtirish uchun haris bo`lish.

**9 - qoida** Hamkorlik va hamkorlikka olib boradigan yo`llarga da`vat qilish hamda ixtilof va ixtilofga olib boradigan yo`llardan uzoq bo`lish. Bir-birimizga kelishgan narsalarimizda yordamchi, ixtilof qilgan narsalarimizda e`sa nafratlanmay, nasihatgo`y bo`lishimiz.

**10 - qoida.** Musulmonlar ommasi, xususan, da`vatchilar o`rtasida fikriy yaxlitlikni vujudga keltirish.

**11 - qoida.** Shaxsning o`z-o`zini tanqid, doimiy nazorat va isloh qilish xislatini mustahkamlash.

**12 - qoida.** Shaxsning mansub bo`lgan jamoatiga taassub qilmasligi va



## Ислом Нури

modomiki, shariatga muvofiq va me'yordan oshish va kamayishdan uzoq e'kan, boshqalarning taqdim e'tayiotgan har qanday harakatini olqishlashi.

**13 - qoida.** Shariatning juz'iy masalalaridagi ixtiloflar xusumat va janjalni e'mas, nasihat va bahsni taqozo e'tadi.

**14 - qoida.** Islomiy jamoatlar o'rtasidagi asos: Birga harakat qilish va birlikdir. Agar buning imkoni bo'lmasa, hamkorlikdir. Buning ham imkoni bo'lmasa, birga yashashdir. Agar buning ham imkoni bo'lmasa halokatdir.

**15 - qoida.** Ixtilof odobini o'rganish, bahs asoslarini o'rnatish va ularning har ikkisinin ahamiyati va bu «Da'vatchining birinchi quroli» ekanligiga iqror bo'lish .

**16 - qoida.** Umumiy hukm berisgdan uzoq bo'lish, uning ofatlaridan saqlanish, shaxslarni oqlik va qoralik o'lchovlari bilan o'lchamaslik. Chunki, har ishni mohiyatiga qarab o'lchash insofdandir.

**17 - qoida.** Maqsad va vositalar o'rtasini ayirish-farqlay bilish. Masalan: da'vat maqsad bo'lsa, harakat, jamoat, markaz va shu kabi narsalar vositadir.

**18 - qoida.** Maqsadlardagi sabot va shariat doirasida vositalarga chiniqish va yangilanish.

**19 - qoida.** Birlamchi muammolarni rioya qilish hamda juz'iy masalalarda ishlarni ahamiyatiga qarab tartiblash. Ishlar o'z zamonini va makonida kelsin.

**20 - qoida.** Bosqichma-bosqich harakat qilish. Ya'ni maqsadlarni



## Ислом Нури

darajalariga qarab taqsimlash hamda ikkinchisi birinchisini, uchunchisi ikkinchisini davom e`ttiradigan holatda tartiblash.

**21 - qoida.** Bahs va janjallardan uzoq bo`lish, jiddiy ishlarni afzal ko`rish, fidoiylik va xayriya ishlarida davom e`tish. Behuda narsalarga e`tibor bermaslik.

**22 - qoida.** Biz hukm chiqaradigan qozi e`mas, da`vatchimiz. Agar Alloh uchun da`vat qilsak, savob olamiz. Boshqalar ustidan hukm chiqarsak, Allohning huzurida ustimizdan hukm chiqariladi va qilgan hukmimizdan mas`ul bo`lamiz.

**23 - qoida.** Amaliy foydasi bo`lmagan har qanday ish-harakat - vaqt va molning zoe`ligidir.

**24 - qoida.** Imkoni boricha ishni ijobiylik va xushxabarlarga markazlashtirish va salbiylik hamda nafratlantirishdan uzoq bo`lish.

**25 - qoida.** Da`vatchilar o`rtasida tajriba almashish o`ta muhimdir. Chunki, bu dunyoda nasihat va yo`llanishdan yuqori yoki barcha ishlari to`g`ri bo`lgan kimsa yo`qdir.

**26 - qoida.** Sunnatni tatbiq qilish va e`tiqodining sofligi bilan mashhur bo`lgan Ummat ulamolarini hurmat qilish, ulardan ilmlarni olish, ularga nisbatan bo`yindarozlik qilmaslik, ularning sharaflarini himoya qilish, niyatlari haqida shubhalar qo`zg`amaslik, ularga tuhmat qilmaslik va tuhmatning yomon oqibatlaridan e`htiyot bo`lish hamda ular uchun taassub qilmaslik. Chunki, har bir olim to`g`ri so`z ham aytishi mumkin, xato so`z ham. Xatolari kishilarga, modomiki, ijtihod qilgan e`kanlar, sharaflarini saqlash bilan qaytariladi.





## Ислом Нури

**27 - qoida.** Musulmonlar haqida yomon gumonda bo`lmaslik. Ularning ayblarini yashirib, so`zlarini o`z o`rniga etkazish. Ayblarini o`zlariga etkazishdan g`aflatda qolmaslik.

**28 - qoida.** Bayon qilish vojib, ixtilof qilish haromdir. Ya`ni haqiqatni bayon, botilni inkor e`tamiz. Biroq, buni do`stlik va dushmanlik uchun asos qilib olmaymiz.

**29 - qoida.** Agar bir kishining yaxshiliklari ko`p bo`lsa, yomonliklarini manfaat bo`lsagina tilga olish. Agar bir kishining yomonliklari ko`p bo`lsa, omma xalq chalg`ib qolmasligi uchun uning yaxshiliklarini tilga olmaslik.

**30 - qoida.** Avval yashab o`tgan kishilarning tajribalaridan foydalanish. Da`vatchi o`z da`vatini yo`qdan boshlamaydi. Zero, u, Allohning diniga xizmat qilish uchun harakat qilgan birinchi yoki oxirgi odam e`mas.

**31 - qoida.** Islom diniga xizmat qilishni hohlagan har bir kishining qilgan ijobiy ishlaridan, garchi ozi bo`lsada, foydalanishi.

**32 - qoida.** Tanqidlardan to`g`ri xulosa chiqarish, odamlarning shubhalanishlariga olib boradigan ishlardan, da`vatning to`xtamasligi sharti bilan, uzoq bo`lish.

**33 - qoida.** Boshboshdoqsiz mustaqillik va sustlik bo`lmagan kengayish.

**34 - qoida.** Fiqhiy mazhablarga nisbatan toq`ri mumosabatda bo`lish: ular uchun taassub qilmaslik, to`lalgicha rad e`tmaslik va ulardagi Allohning Kitobi va Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning sunnatlariga mos bo`lgan barcha narsalarni olish.

**35 - qoida.** G`arb va uning madaniyatiga nisbatan to`g`ri mavqe`ni olish



## Ислом Нури

hamda uning tajribiy fanlaridan dinimizning qoida va asoslariga muvofiq foydalanish.

**36 - qoida.** Shar'iy lafzlarni o'z ma'nolari bilan iste'mol qilish va kelgindi hamda buzuq lafzlarni iste'mol qilmaslik. Masalan: «demokratiya» o'rniga «shuro» so'zini iste'mol qilish.

**37 - qoida.** Go'zal namuna. Da'vatchi o'z da'vatining ko'zgusi va jonlantirgan namunasidir.

**38 - qoida.** Shuro, shuroning ahmiyatiga iqrar bo'lish hamda da'vatchining maslahatlashish ilmini o'rganishi.

**39 - qoida.** Hikmat va chiroyli namuna yo'llaridan yurish hamda Alloh ta'oloning: «Hikmat berilgan kishiga ko'p yaxshilik berilibdi» – deb aytgan so'zini da'vat uchun mezon va da'vatda yurish uchun hikmat qilib olish.

**40 - qoida.** Musulmon haqiqatni izlovchidir. Haqiqat yo'lida shijoatli bo'lish dunyo va oxiratdagi g'alaba yo'lidir. Agar haqiqatni aytishdan qo'rqsangiz, botil so'zlarni so'zlamang.

**41 - qoida.** Da'vatda qattqlik qilishdan uzoq bo'lish va shariat doirasida engillashtirish bilan harakat qilish.

**41 - qoida.** Mish-mishlar va ularni rivojlantirishdan hamda uning ortidan keladigan yomon oqibatlardan e'htiyot bo'lish.

**43 - qoida.** Afzallik miqyosi taqvo va solih amal bo'lib, o'lkachilik, qarindoshlik, toifachilik, jamoatchilik va boshqa taassublarning barchasidan uzoq bo'lish.



## Ислом Нури

**44 - qoida.** Da'vatdagi e'ng afzal dastur - Islom dushmanlariga avvalo Islom haqiqatlari va dasturlarini muqaddam qo'yib, shubhalarni keltirmaslik va shubhalarga raddiya bermaslikdir.

Musulmonlar ommasi uchun e'sa, avvalo sunnatni va sog'lom Islomni taqdim qilish, ularga haqiqat mezonini berish, aqllariga yarasha xitob qilish, ularni din asoslariga chaqirish va ixtilofli o'rinlardan uzoq qilish, ularning hidoyatlariga sabab bo'lish uchun psixologiyasi va istaklarini o'rganish.

**45 - qoida.** Da'vatchilar va islomiy harakatlarni Alloh ta'ologa davomiy suratda bog'lanish bilan himoya qilish. Inson kuchini sarf e'tibgina Alloh ta'olodan yordam so'rash hamda Alloh ta'oloning da'vatni boshqarishi, da'vatchilarni tanlab, ularni to'g'ri yo'lga yo'llashiga din va ishlarning hammasi Alloh subhonahu va ta'oloning qo'lida e'kaniga qat'iy ishonish.

### So'ng ...

Bu qoidalar Alloh yo'lga da'vat e'tgan ko'plab da'vatchilarning tajribalari va samaralaridan olindi. Shuni yaxshi bilaylikki, da'vatchilar bu qoidalarni o'rganib, unga amal qilsalar, inshaalloh, allohning yordami juda ham yaqin bo'ladi. Da'vatchilar unutmasinlarki, salohiyat va najot Alloh subhonahu va ta'ologa bog'lanish, unga barcha ishda tavakkul va niyatni xolis qilish, nafs-havoning hohishlaridan uzoq bo'lish, barcha ishni Alloh uchun qilishdadir... Biz shundagina xavfsiz erga etib boramiz.

Alloh ta'olodan bizlarni to'g'ri yo'lga yo'llashi va bizga shafqat qilishini so'raymiz. Alloh o'z ishida g'olib bo'lgan zotdir.

Alloh ta'olo payg'ambarimiz, uning oilasi, sahobalari va ularga qiyomat kuniga qadar yaxshilik bilan e'rgashgan kishilarga salavot va salomlar yo'llasin.



## Ислом Нури

«Salaf solih da`vat uslubining belgilari» silsilasi (4)

Muallif Abu Muhammad

Tarjimon Abu Ja'far al Buxoriy

Bismillahir rohmanir rohiym

Barcha olamlar robbisi bo`lgan Allohga hamdlar, payg`anbarimiz, uning oilasi, sahobalari va qiyomat kuniga qadar ularni sevgan kishilarga salavot va salomlar bo`lsin.

So`ng ...

Alloh yo`liga da`vat e`tish amallarning e`ng sharaflisi va ibodatlarning e`ng buyugidir. Chunki, u payg`ambarlarning xos vazifalari, Allohning do`stlari va sara bandalarining e`ng muhim ishlari bo`lgan. Alloh yo`liga da`vat e`tuvchilar - zimmalariga katta yuk va mas`uliyatni olgan hamda maqomi yuksak kishilardir. Alloh ta`olo dedi: «Alloh yo`liga da`vat e`tgan, solih amallarni qilgan va: «Men musulmonlardan biriman» degan kishidan ko`ra chiroyli so`zli kimsa bormi?».

Alloh yo`liga da`vat e`tuvchilar - Ummatning toza va sara kishilaridir. Chunki, bu vazifa ulardan barcha ishlarida odamlar uchun namuna va etakchi bo`lishni taqozo e`tadi. Da`vatchilar o`zlari yashayotgan jamiyat ichida namuna bo`lishlari, hayotlarida odamlarni da`vat e`tishayotgan dinning g`oya va asarlari ko`rinishi kerak. Shuning uchun ham, Alloh ta`olo Islom Ummatiga o`z ichidan Allohning diniga da`vat e`tadigan bir guruhni tayyorlashni farz qildi. Tayyorlash e`sa oson ish e`mas. Balki, u tinimsiz fidoiylik va imkoniyatlarga muhtojdir. Shuning uchun ham, bu vazifani ado e`tadigan kishilarni tanlash va tekshirib ko`rish kerak.



## Ислом Нури

Afsuski, hozirgi kunlarda da`vatga da`vatchilar kabi mansub bo`lgan, biroq, foyda berishdan ko`ra zarari ko`proq bo`lgan shaxslar paydo bo`ldilar. Buning sababi, ularni Allohga da`vat e`tuvchi haqiqiy da`vatchi qilib etishtirishdagi kamchiliklarga borib taqaladi.

Islom ushbu kunda payg`ambarlarning Alloh yo`liga da`vat e`tishgan da`vat uslublarini tushungan, Islomni ochiq va mukammal suratda yoyadigan, bu ishda tirishadigan, Islomni o`zlarining asosiy maqsadlari qilib oladigan, e`ng muhimi, qilgan da`vatlari bilan Allohga yaqinlikni nazarda tutadigan da`vatchilarga muhtojdir.

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam bizlarga odamlarga da`vatni qanday etkazishni o`rgatdilar. U zotning hayot tarzlarida bizlar uchun ko`p o`rnaklar bor. demak, bizlar, da`vatchi o`laroq, rasululloh sollallohu alayhi va sallamning yo`liga e`rgashishimiz, bog`lanishimiz va unda matonat bilan turishimiz kerak. Shubhasiz, rasululloh sollallohu alayhi va sallamning hayotida Allohning diniga da`vat e`tish hamda Yer yuzida Islomni barpo qiladigan uslubning ochiq bayonlari borki, u, odamlar keyingi davrlarda paydo qilgan va rasululloh sollallohu alayhi va sallamning yo`liga zid bid`at yo`llarga bizda e`htiyoj tug`dirmaydi.

Darhaqiqat, Olam bugungi kunda, birinchi bobolari kabi Er yuzini da`vat nurlari bilan yoritadigan Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning o`rinbosarlari - xolis da`vatchilarni kutmoqda. Alloh ta`olo bizning asrimizda Islom da`vatini dunyoning barcha o`lkalariga etishi va yoyilishiga nasib e`tdi. Dunyoning barcha davlatlarida islomiy uyg`onish shabbodalari e`smonoqda. Da`vat jamiyatning barcha tarmoqlariga kirib bormoqda. Da`vat rasmiy maqomlardagi muallimlar kabi davlat xodimlarigagina cheklanishdan chiqdi, Balki, da`vatda e`rkak, xotin-qiz, mutaxassis, katta va kichiklarning barchasi ishtirok e`tmoqda. Bularning



## Ислом Нури

barchasi yaxshilik darakchisi hamda mu`minning yongan yuragini sovutuvchi hodisalardan biridir.

Biroq, islomiy da`vat e`rishgan ushbu taraqqiyot musibatlar, ichki va tashqi salbiy narsalardan xoliy bo`lmadi. Biz quyida ularning bir nechasini bayon qilmoqchimiz.

\* Rasululloh sollalohu alayhi va sallamning sunnatlari va da`vat uslublarini bilgan murabbiy va yo`llovchilarning ozligi hamda Islom diniga qiziqishning haddan ziyod ortishi. Bu tezroq tuzalishi kerak bo`lgan hastalikdir.

\* Da`vatchini davrning yangi va xilma-xil e`htiyojlariga mos darajada, xususan, o`rgatish va odatlantirishga tayyorlaydigan dasturlardagi kamchiliklar.

\* Tarbiya berish yoshining kattaligi. Chunki, da`vatchi shakllanish davrining ilk kunlaridanoq tarbiyalanishi kerak. Toki, o`rgangan narsalarni berish kechikmasin va da`vatchi o`z tajribalaridan foydalansin.

\* Islomiy da`vatga qarshi kuchlar. Bu kuchlar katta imkoniyatlarga e`ga va Allohning yo`lidan to`sishda katta tajribasi bo`lgan kuchlardir. Kofir millatlar bir-birlariga nisbatan qanchalar ixtilofda bo`lmasinlar, Islom dini va musulmonlarga qarshi kurashda doimo hamkordirlar.

\* Hayotning jozibasi, fitnalari, muammolari va ishlari da`vat va da`vatchilar oldida to`siq bo`lib qolmoqda. Da`vatchilar inson nafsi, inson nafsiga ta`sir e`tish, uning darichalari va uni tozalash yo`llarini bilishlari kerak.

\* Islom diniga qarshi bo`lgan fikriy oqimlarning paydo bo`lishi va ularning



## Ислом Нури

moddiy narsalar hamda ommaviy axborot vositalariga e`ga bo`lishlari va odamlarning ular bilan chalg`ishlari.

\* Islomiy tadqiqotlar. Tabiiyki, islomiy tadqiqotlarning ijobiy tomonlari bo`lsada, biroq, uning salbiy tomonlari ham bor. Ulardan biri ba`zi narsalarni Allohning Kitobi, sunnat, ijmo` va shariat maqsadlarini o`rganishda salaf tushunchalariga bog`lanmaslikdir. Nafs-havo, siyosiy, ijtimoiy va guruhbozlik bosqichlarining kirirb kelishi hamda juz`iy tahlillar ham biz aytgan to`siqlardandir. Bularning barchasi umuman jamiyatga, xususan e`sa da`vatchilarga salbiy ta`sir ko`rsatadi. Yoshlarni o`z tushunchalari va olgan bilimlaridan shubhalantirish, yetuk bo`lmagan hamda mantiqsiz bahs va haroratni vujudga keltirish, raddiyalar nafratlanishlar ushbu salbiy ta`sirlar jumlasidandir... Buning oqibatida yoshlarning g`oyaviy dushmanlari yetmagandek, guruhbozlik va taassub (o`jarlik) paydo bo`ldi.

Bu va bundan boshqa yuklar, da`vatni, shaxsiy va hissiyotlar maydonidan reja, dastur, qoidaga bog`lanish maydoniga olib chiqishimizda, biz da`vatchilarga, o`z og`irligini ko`rsatmoqda. Shuning uchun ham, biz ushbu risolani islomiy jamoatlarning barcha da`vatchilariga yo`llaymiz va ularni Ummatni yangitdan oyoqqa turishi va o`zining avvalgi holatiga qaytishi uchun harakat qilishga da`vat e`tamiz.

Biz ushbu risolani taqdim e`tar e`kanmiz, «qoida» so`zining istilohiy iste`molida butunlay to`g`ri fikr yuritdik deb aytmaymiz. Balki, uning ba`zisi qoida, ba`zisi e`sa asosdir. Nima bo`lsa ham, «qoida» so`zining iste`molini da`vatchilar uchun o`rtoq fikrni vujudga keltirish yo`lida umumiy va asos o`laroq keltirdik.

Biz Alloh ta`olodan bundan ko`ra yaxshiroq va kengroq tushuntirish



## Ислом Нури

berishi uchun boshqa risolalarni yozishga muvaffaq qilishini so`raymiz. Barcha olamlar robbisi bo`lgan Alloh ta`ologa hamdu sanolar bo`lsin.

### Da`vatchining qoidalari

**1 - qoida.** Alloh ta`oloning yo`liga da`vat e`tish dunyo va oxiratdagi najot yo`llaridan biridir. Payg`ambarimiz aytganlaridek: Allo siz sababli bir kishini hidoyat qilsa, u sizga (qimmatbaho) qizil yungli tuyalaringiz bo`lishidan ko`ra yaxshiroqdir. Da`vat qilish bilan, ijobat qilinishini kutilmay, savoblar yoziladi. Islomning haqiqiy g`alabasini ro`yobga cjiqarish da`vatchidan talab qilinmagan. U Allohning ishidir. Islomning g`alabasi Alloh hohlagan paytda sodir bo`ladi. Biroq, da`vatchidan Islom yo`lida o`z kuchini sarf e`tishi talab qilingan. Da`vatchining tayyorgarlik ko`rishi shart bo`lsa, Alloh g`alaba berishni o`z zimmasiga oladi. Da`vat jihodning bir ko`rinishi bo`lib, jihod bilan maqsad va natijada birlashadi.

**2 - qoida.** Ummat salafining «Ahlussunna val-jamoa» yo`nalishida shakllangan dasturini, bu dasturning mu`tadilligi, me`yordan oshish va tushishdan uzoq bo`lishini hamda umumiyligi (shumuliyligi) ni o`rnatish va mustahkamlash.

**3 - qoida.** Allohning Kitobi va rasululloh sollallohu alayhi va sallamning sunnatlarini o`z ichiga olgan shar`iy ilm, Allohning fazli bilan, toyilishdan saqlaydi. U – payg`ambarlar yo`lida yurgan kishilar uchun mayoqdir.

**4 - qoida.** Da`vatning sog`lom dasturi – Allohning Kitobi, Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning sunnatlari, bu Ummatning salafi, ularga qiyomat kuniga qadar yaxshilik bilan e`rgashgan kishilarning so`zlari va amallaridir.





## Ислом Нури

**5 - qoida.** Imom Molik rahimahullohning: «Bu ummatning oxiri avvali isloh bo`lgan narsa bilan isloh bo`ladi, U kunda din bo`lmagan narsa, bugun din bo`la olmaydi» deb aytgan so`zlariga binoan, odamlarni Rasululloh sollallohu alayhi va sallam, uning sahobalari va ularga yaxshilik bilan e`rgashgan salaf solih yashagan hayotga qaytarish.

**6 - qoida.** Alloh yo`liga da`vat e`tish uchun birlashgan jamoani «musulmonlar jamoasi» e`mas, balki, «musulmonlardan bo`lgan bir jamoa» deb tushunish to`g`ri tushunishdir.

**7 - qoida.** Do`stlik - fikr va shaxslar uchun e`mas, haqiqat uchundir. Chunki, haqiqat boqiy, shaxslar e`sa foniidir.

**8 - qoida.** Tavhid kalimasi yaxlitlik asosi va musulmonlarni birlashtirish o`rniga parchalagan bugungi kundagi guruhbozlikning salbiy ko`rinishlaridan uzoq bo`lish shiori ostida harakat qiladigan dastur bilan musulmonlar jamoatini tuzish hamda ularni haqiqat uzra va haqiqat yo`lida birlashtirish uchun haris bo`lish.

**9 - qoida** Hamkorlik va hamkorlikka olib boradigan yo`llarga da`vat qilish hamda ixtilof va ixtilofga olib boradigan yo`llardan uzoq bo`lish. Bir-birimizga kelishgan narsalarimizda yordamchi, ixtilof qilgan narsalarimizda e`sa nafratlanmay, nasihatgo`y bo`lishimiz.

**10 - qoida.** Musulmonlar ommasi, xususan, da`vatchilar o`rtasida fikriy yaxlitlikni vujudga keltirish.

**11 - qoida.** Shaxsning o`z-o`zini tanqid, doimiy nazorat va isloh qilish xislatini mustahkamlash.

**12 - qoida.** Shaxsning mansub bo`lgan jamoatiga taassub qilmasligi va



## Ислом Нури

modomiki, shariatga muvofiq va me'yordan oshish va kamayishdan uzoq e'kan, boshqalarning taqdim e'tayiotgan har qanday harakatini olqishlashi.

**13 - qoida.** Shariatning juz'iy masalalaridagi ixtiloflar xusumat va janjalni e'mas, nasihat va bahsni taqozo e'tadi.

**14 - qoida.** Islomiy jamoatlar o'rtasidagi asos: Birga harakat qilish va birlikdir. Agar buning imkoni bo'lmasa, hamkorlikdir. Buning ham imkoni bo'lmasa, birga yashashdir. Agar buning ham imkoni bo'lmasa halokatdir.

**15 - qoida.** Ixtilof odobini o'rganish, bahs asoslarini o'rnatish va ularning har ikkisinin ahamiyati va bu «Da'vatchining birinchi quroli» ekanligiga iqror bo'lish .

**16 - qoida.** Umumiy hukm berisgdan uzoq bo'lish, uning ofatlaridan saqlanish, shaxslarni oqlik va qoralik o'lchovlari bilan o'lchamaslik. Chunki, har ishni mohiyatiga qarab o'lchash insofdandir.

**17 - qoida.** Maqsad va vositalar o'rtasini ayirish-farqlay bilish. Masalan: da'vat maqsad bo'lsa, harakat, jamoat, markaz va shu kabi narsalar vositadir.

**18 - qoida.** Maqsadlardagi sabot va shariat doirasida vositalarga chiniqish va yangilanish.

**19 - qoida.** Birlamchi muammolarni rioya qilish hamda juz'iy masalalarda ishlarni ahamiyatiga qarab tartiblash. Ishlar o'z zamonini va makonida kelsin.

**20 - qoida.** Bosqichma-bosqich harakat qilish. Ya'ni maqsadlarni



## Ислом Нури

darajalariga qarab taqsimlash hamda ikkinchisi birinchisini, uchunchisi ikkinchisini davom e`ttiradigan holatda tartiblash.

**21 - qoida.** Bahs va janjallardan uzoq bo`lish, jiddiy ishlarni afzal ko`rish, fidoiylik va xayriya ishlarida davom e`tish. Behuda narsalarga e`tibor bermaslik.

**22 - qoida.** Biz hukm chiqaradigan qozi e`mas, da`vatchimiz. Agar Alloh uchun da`vat qilsak, savob olamiz. Boshqalar ustidan hukm chiqarsak, Allohning huzurida ustimizdan hukm chiqariladi va qilgan hukmimizdan mas`ul bo`lamiz.

**23 - qoida.** Amaliy foydasi bo`lmagan har qanday ish-harakat - vaqt va molning zoe`ligidir.

**24 - qoida.** Imkoni boricha ishni ijobiylik va xushxabarlarga markazlashtirish va salbiylik hamda nafratlantirishdan uzoq bo`lish.

**25 - qoida.** Da`vatchilar o`rtasida tajriba almashish o`ta muhimdir. Chunki, bu dunyoda nasihat va yo`llanishdan yuqori yoki barcha ishlari to`g`ri bo`lgan kimsa yo`qdir.

**26 - qoida.** Sunnatni tatbiq qilish va e`tiqodining sofligi bilan mashhur bo`lgan Ummat ulamolarini hurmat qilish, ulardan ilmlarni olish, ularga nisbatan bo`yindarozlik qilmaslik, ularning sharaflarini himoya qilish, niyatlari haqida shubhalar qo`zg`amaslik, ularga tuhmat qilmaslik va tuhmatning yomon oqibatlaridan e`htiyot bo`lish hamda ular uchun taassub qilmaslik. Chunki, har bir olim to`g`ri so`z ham aytishi mumkin, xato so`z ham. Xatolari kishilarga, modomiki, ijti hod qilgan e`kanlar, sharaflarini saqlash bilan qaytariladi.



## Ислом Нури

**27 - qoida.** Musulmonlar haqida yomon gumonda bo`lmaslik. Ularning ayblarini yashirib, so`zlarini o`z o`rniga etkazish. Ayblarini o`zlariga etkazishdan g`aflatda qolmaslik.

**28 - qoida.** Bayon qilish vojib, ixtilof qilish haromdir. Ya`ni haqiqatni bayon, botilni inkor e`tamiz. Biroq, buni do`stlik va dushmanlik uchun asos qilib olmaymiz.

**29 - qoida.** Agar bir kishining yaxshiliklari ko`p bo`lsa, yomonliklarini manfaat bo`lsagina tilga olish. Agar bir kishining yomonliklari ko`p bo`lsa, omma xalq chalg`ib qolmasligi uchun uning yaxshiliklarini tilga olmaslik.

**30 - qoida.** Avval yashab o`tgan kishilarning tajribalaridan foydalanish. Da`vatchi o`z da`vatini yo`qdan boshlamaydi. Zero, u, Allohning diniga xizmat qilish uchun harakat qilgan birinchi yoki oxirgi odam e`mas.

**31 - qoida.** Islom diniga xizmat qilishni hohlagan har bir kishining qilgan ijobiy ishlaridan, garchi ozi bo`lsada, foydalanishi.

**32 - qoida.** Tanqidlardan to`g`ri xulosa chiqarish, odamlarning shubhalanishlariga olib boradigan ishlardan, da`vatning to`xtamasligi sharti bilan, uzoq bo`lish.

**33 - qoida.** Boshboshdoqsiz mustaqillik va sustlik bo`lmagan kengayish.

**34 - qoida.** Fiqhiy mazhablarga nisbatan toq`ri mumosabatda bo`lish: ular uchun taassub qilmaslik, to`lalgicha rad e`tmaslik va ulardagi Allohning Kitobi va Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning sunnatlariga mos bo`lgan barcha narsalarni olish.

**35 - qoida.** G`arb va uning madaniyatiga nisbatan to`g`ri mavqe`ni olish



## Ислом Нури

hamda uning tajribiy fanlaridan dinimizning qoida va asoslariga muvofiq foydalanish.

**36 - qoida.** Shar`iy lafzlarni o`z ma`nolari bilan iste`mol qilish va kelgindi hamda buzuq lafzlarni iste`mol qilmaslik. Masalan: «demokratiya» o`rniga «shuro» so`zini iste`mol qilish.

**37 - qoida.** Go`zal namuna. Da`vatchi o`z da`vatining ko`zgusi va jonlantirgan namunasidir.

**38 - qoida.** Shuro, shuroning ahmiyatiga iqror bo`lish hamda da`vatchining maslahatlashish ilmini o`rganishi.

**39 - qoida.** Hikmat va chiroyli namuna yo`llaridan yurish hamda Alloh ta`oloning: «Hikmat berilgan kishiga ko`p yaxshilik berilibdi» – deb aytgan so`zini da`vat uchun mezon va da`vatda yurish uchun hikmat qilib olish.

**40 - qoida.** Musulmon haqiqatni izlovchidir. Haqiqat yo`lida shijoatli bo`lish dunyo va oxiratdagi g`alaba yo`lidir. Agar haqiqatni aytishdan qo`rqsangiz, botil so`zlarni so`zlamang.

**41 - qoida.** Da`vatda qattqlik qilishdan uzoq bo`lish va shariat doirasida engillashtirish bilan harakat qilish.

**41 - qoida.** Mish-mishlar va ularni rivojlantirishdan hamda uning ortidan keladigan yomon oqibatlardan e`htiyot bo`lish.

**43 - qoida.** Afzallik miqyosi taqvo va solih amal bo`lib, o`lkachilik, qarindoshlik, toifachilik, jamoatchilik va boshqa taassublarning barchasidan uzoq bo`lish.



## Ислом Нури

**44 - qoida.** Da'vatdagi e'ng afzal dastur - Islom dushmanlariga avvalo Islom haqiqatlari va dasturlarini muqaddam qo'yib, shubhalarni keltirmaslik va shubhalarga raddiya bermaslikdir.

Musulmonlar ommasi uchun e'sa, avvalo sunnatni va sog'lom Islomni taqdim qilish, ularga haqiqat mezonini berish, aqllariga yarasha xitob qilish, ularni din asoslariga chaqirish va ixtilofli o'rinlardan uzoq qilish, ularning hidoyatlariga sabab bo'lish uchun psixologiyasi va istaklarini o'rganish.

**45 - qoida.** Da'vatchilar va islomiy harakatlarni Alloh ta'ologa davomiy suratda bog'lanish bilan himoya qilish. Inson kuchini sarf e'tibgina Alloh ta'olodan yordam so'rash hamda Alloh ta'oloning da'vatni boshqarishi, da'vatchilarni tanlab, ularni to'g'ri yo'lga yo'llashiga din va ishlarning hammasi Alloh subhonahu va ta'oloning qo'lida e'kaniga qat'iy ishonish.

### So'ng ...

Bu qoidalar Alloh yo'lga da'vat e'tgan ko'plab da'vatchilarning tajribalari va samaralaridan olindi. Shuni yaxshi bilaylikki, da'vatchilar bu qoidalarni o'rganib, unga amal qilsalar, inshaalloh, allohning yordami juda ham yaqin bo'ladi. Da'vatchilar unutmasinlarki, salohiyat va najot Alloh subhonahu va ta'ologa bog'lanish, unga barcha ishda tavakkul va niyatni xolis qilish, nafs-havoning hohishlaridan uzoq bo'lish, barcha ishni Alloh uchun qilishdadir... Biz shundagina xavfsiz erga etib boramiz.

Alloh ta'olodan bizlarni to'g'ri yo'lga yo'llashi va bizga shafqat qilishini so'raymiz. Alloh o'z ishida g'olib bo'lgan zotdir.

Alloh ta'olo payg'ambarimiz, uning oilasi, sahobalari va ularga qiyomat kuniga qadar yaxshilik bilan e'rgashgan kishilarga salavot va salomlar yo'llasin.